

## MEVA-SABZAVOT MAXSULOTLARI EKSPORTIDA LOGISTIKA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

*Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti*

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Ahunov Jasurbek Jaxongirovich*

*Iqtisodiyot mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistika faoliyatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari, iqtisodchi olimlar tomonidan logistika tushunchasiga berilgan tariflar talqini hamda mamlakatimizda logistikaning rivojlanishi dastlab mikro darajada rivojlanish xususiyatini kasb etib, ichki bozor imkoniyatlari darajasida rivojlanayotganligi, uning asosini korxonalar bir – biri bilan o'zaro munosabatlariga xizmat ko'rsatish jarayonida tovar yetkazish sifatini oshirishda va mahsulotni eng kam xarajatlar bilan yetkazib borishda o'z aksini topayotganligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Logistika, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti, logistikaning rivojlanishi, eksport qiluvchi subektlar, logistika vazifalari, koroporativ logistik tizimi

**Kirish.** O'zbekiston bir necha asrlar davomida Yevropa va Osiyoni tutashtirib turgan savdo sotiqlik yo'lining markazida joylashgan. Ammo XVI -XVII asrlarda dengiz transportining rivojlanishi “Buyuk ipak yo'li”ning ahamiyati pasayishiga sabab bo'ldi. XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib Xitoy, Hindiston va Janubiy Koreya kabi Osiyo davlatlarining rivojlanishi va ularning jahon bozoriga kirib borishi yangi zamonaviy Buyuk ipak yo'liga bo'lgan talabni ortishiga olib kelmoqda. O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining qoq markazida joylashgan bo'lib, G'arb va Sharq, Janub va Shimol tomondan Yevropa va Osiyoni bog'lovchi qisqa koridor yo'llariga ega.

Mamlakatimizda logistikaning rivojlanishi dastlab mikro darajada rivojlanish xususiyatini kasb etib, ichki bozor imkoniyatlari darajasida rivojlandi. Uning asosini korxonalar bir – biri bilan o'zaro munosabatlariga xizmat ko'rsatish jarayonida tovar yetkazish sifatini oshirishda va mahsulotni eng kam xarajatlar bilan yetkazib borishda o'z aksini topdi. Xususan, keyingi rivojlanish bosqichi mahsulotlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning mustahkam usuli sifatida logistika imkoniyatlaridan foydalanish rivojlanib bordi.

**Adabiyotlar tahlili.** Logistika va uning faoliyati bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta'riflar berilgan. Rossiyalik iqtisodchi olimlardan biri A.N. Rodnikovning fikricha: “Logistika – bu eng avvalo tovar harakati zanjirini rejalashtirish, transportitovka, ya'ni transportda tashish, tovarlarni saqlash hamda boshqa materiallar va nomaterialning harakatlarini boshqarish, ularni nazorat qilib borish, ishlab chiqarish hududigacha material va xomashyolar harakatlanish jarayonlarini takomillashtirish, zavodlar ichida xomashyo, material va yarim fabrikatlarni qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni oxirgi talablar va manfaatlarga

muvofig iste'molchilarga yetkazib berish hamda tegishli axborot manbaalarga ishlov berish, ularni yetkazib berish va saqlashdir<sup>94</sup>” deb ta'rif bergan.

Ushbu ta'rifni tahlil qiladigan bo'lsak, bozor munosabatlari juda murakkab tuzilgan va logistika faoliyati barcha bozor munosabatlariga xizmat ko'rsatishi deyarli imkonsizdir. Masalan, davlatning barcha mintaqalari bir xil darajada rivojlanmagan, ba'zi hududlarda o'zaro oldi-sotdi va boshqa bozor munosabatlarida logistika faoliyatining ishtiroki yaxshi rivojlanmagan.

Shuningdek, T.V. Kosareva, I.G Smirnovlarning “Transportnaya logistika” nomli o'quv qo'llanmasida keltirishicha: “Logistika – bu talablarni to'liq qondirish maqsadida xomashyo, materiallar, tugatilmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, xizmat, moliya va iste'mol joyigacha (qabul qilish, jo'natish, tashqi va ichki o'zgarishlarni qamrab olgan) vujudga keladigan oqimdan xabardor qiladigan ilova qilingan axborotlar oqimlarini yetarli darajada va samarali (xarajat va vaqt nuqtai nazaridan) boshqarish jarayonidir”<sup>95</sup> deya ta'kidlab o'tishgan.

Michigan universiteti professori, iqtisodchi D. Bauersoksning fikricha: “Logistika infratuzilmasi ishlab chiqarish obyektlari, axborot vositalari, transport xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar va ularning imkoniyatlari, omborxonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiyani boshqarish, yuklarni yuklash – tushirish terminallari va chakana do'konlarga tegishlidir<sup>96</sup>” deya ta'rif bergan. Ushbu ta'rifdagi transport kompaniyalari va ularning imkoniyatlari, omborxonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiyani boshqarish, yuklarni yuklash - tushirish terminallari va chakana do'konlarga tegishlidir degan jumla ham falsafiy, ham iqtisodiy jihatdan qisman to'g'ri emas. Chunki logistika faoliyati faqat transport kompaniyalari o'rtasida faoliyatni amalga oshirmaydi, balki ular o'rtasidagi munosabatlarda bir tarafning roziligi va topshirig'iga ko'ra ikkinchi yoki boshqa ishtirokchilarga mahsulotni yetkazib berishda vositachi xam bo'ladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Q. A. Dadaboyevning logistikani mahsulotlar harakatini boshqarish, korxonani xomashyo mahsulotlari bilan ta'minlashdan oxirgi iste'molchiga tayyor mahsulot yetkazib berish, shuningdek, materiallar harakatiga yordam qiluvchi moddiy, moliyaviy va axborot oqimigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oluvchi mexanizm deya<sup>97</sup> ta'rif berib o'tgan.

**Tadqiqot metodogogiyasi:** Maqolada meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistika faoliyatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari, mazkur yo'nalish bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fikrlariga tayangan holda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash, emperik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullari orqali turistik majmualar faoliyatini boshqarishning o'stuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chikilgan.

**Asosiy natijalar:** Respublikamizda logistik xizmatlar xilma-xilligi bu tarmoq tashkilotlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini bermoqda.

<sup>94</sup> Родников Андрей Николаевич, Логистика: Терминологический словарь. М.: ИНФРА-М, 2000. 352 с

<sup>95</sup> Смирнов И. Г., Косарева Т. В. Транспортная логистика: Учебное пособие. – К.: Центр учебной литературы, 2008. – 234 с

<sup>96</sup> Бауэрсокс Д. Логистика. Интегрированная цепь поставок. — М.: Илим-Бизнес, 2001

<sup>97</sup> Logistika. O'quv qo'llanma. Q.A.Dadabayev – Toshkent, TDIU

Logistikaning rivojlanishi avvalambor, avtomobil va temir yo‘llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarini kamaytirishning muhim sharti va omili hisoblanadi.

Korporativ logistika - bu ma’lum bir kompaniyaning barcha turdagi logistika faoliyati uchun umumiy atama. U logistikaning barcha ishlab chiqarish va tashkiliy jihatlarini o‘z ichiga oladi. Bular sotib olish, ishlab chiqarishning ichki logistikasi, shuningdek, ikkilamchi tovarlarni yetkazib berish va tarqatishdir. Logistika vazifalari qaysi iqtisodiy tarmoqqa tegishli korxonaga bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir kompaniya tomonidan bajarilishi kerak. Korporativ logistika - bu ma’lum bir kompaniyaning turli logistika talablari uchun umumiy tushunchadir. Bundan tashqari, korporativ logistik tizimda logistika kompaniyalari logistikaga oid barcha vazifalarni, xususan, moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni o‘z ichiga oladi. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining raqobatbardoshligi, ularning jahon bozorida kuchli va kuchsiz tomonlari eksport qiluvchi subyektning jahon bozorida munosib o‘rin egallash imkoniyatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonning tabiiy-iqlim geografik sharoitlari meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va ichki iste’moldan ortgan qismini eksportga tayyorlash hamda uning logistik tizim-zanjirini rivojlantirish uchun katta imkoniyatga ega bo‘lishiga qaramay, jahon davlari eksport bozorida yetarli darajada o‘rin egallash uchun imkoniyatlarimizdan yetarli foydalanmayotganimizni ko‘rsatadi. Har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida uning asosiy qon tomirlaridan bo‘lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega.

Dehqon va fermer xo‘jaliklari o‘zlari yetishtirgan mahsulotni hosil yig‘ishtirib olinishidan yarim yil oldin tuzilgan shartnomaga asosan qayta ishlash korxonalariga emas, maxsulotlar eksportida logistik strategiyasi orqali sotish paytida shakllangan baholar bo‘yicha erkin bozorda sotishni ma’qul ko‘radilar. Qayta ishlash korxonalariga har doim ham o‘zlari tuzgan shartnoma bo‘yicha qishloq xo‘jaligi korxonalariga to‘lovlarni amalga oshirish va mahsulot yetishtirishda yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Ammo, meva va sabzavot ekinlaridan past hosil olinishi va bu xom ashyo sifatining past bo‘lishiga hamda tayyor maxsulotlar eksportida logistik yo‘nalishi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganli sababli qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan sof texnologik va tashkiliy jihatlar e’tibor qaratish lozim.

Meva-sabzavot maxsulotlari eksportida logistik strategiyasini jadallashtirishda quyi tarmoqning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri ekin turlari bo‘yicha hosildorlik darajasidir. Agrar tarmoqda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, urug‘chilik-seleksiya ishlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi, meva-sabzavot mahsulotlari eksportida logistik strategiyasi va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish borasida olib borilgan tizimli chora-tadbirlar natijasi o‘laroq o‘tgan davr davomida sabzavotlar, kartoshka, poliz ekinlari hamda meva va uzumlar hosildorligini ko‘paytirish ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston meva-sabzavotlarini asosan Rossiya, Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklariga eksport qilinishi bilan bir qatorda, sohada ijobiy tendensiyalar bilan birga

yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina. Jumladan, O‘zbekistonda meva-sabzavot seleksiyasining to‘xtab qolgani, jahon bozorida talabgir bo‘lgan, uzoq muddat saqlanadigan yangi navlar yaratilmayotgani, O‘zbekistonning qaysi hududida qanday mahsulot yetishtirilishi, eksportchilar o‘ziga kerak miqdordagi meva-sabzavotni bitta qo‘ldan qayerdan olishni haligacha bilmasligi, bu borada hududlarda axborot-tahlil markazlarining yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, transport-logistika borasida ko‘p yillar qiynab kelgan muammolarga yechim topilgani asnosida hamon mahsulotlarni qadoqlash muammoligicha qolmoqda. O‘zbekiston bargak (danaksiz turshak) yetishtirish bo‘yicha dunyoda ikkinchi, o‘rik va kishmish yetishtirish bo‘yicha to‘rtinchi, qora olxo‘ri va gilos yetishtirish bo‘yicha beshinchi, olxo‘ri va shaftoli yetishtirish bo‘yicha yettinchi va to‘qqizinchi, uzum yetishtirish bo‘yicha o‘n yettinchi o‘rinda turadi.

Xususan, “Xitoy gilosni 15 dollardan olishga tayyor. Lekin, ularning tasavvuridagi gilos bilan biz biladigan gilosning o‘rtasida katta farq bor. Tavakkal qilib Xitoyga olib borilgan tonnalab gilosning 10 foizigina ularning talabiga javob beradi, qolganini qaytarishadi. Rossiya va BAA bilan ham shunga o‘xshash muammo bor. Mahsulotlarimiz u yerda asosan zararkunandalarni deb chiqitga chiqib ketmoqda. Rossiyada mahsulot tarkibida qandaydir hashorat aniqlansa, butun boshli partiyani yo‘q qilishadi. Shu sababli respublikamizda laboratoriyalar tashkil etildi, eksport uchun mo‘ljallangan mahsulotlarni avval shu yerda tekshiruvdan o‘tkazilmoqda. Bu esa yo‘qotishlarning oldi olinishiga xizmat qiladi.”<sup>98</sup>

Konvertatsiyaning erkinlashuvi, eksport cheklovlari, sohadagi yashirin soliqlar va eksport qilinadigan mahsulotlar uchun oldindan to‘lovning bekor qilinishi, eksport qiluvchilarga Markaziy bankdan naqd pul berilib, ularning tomorqa egalaridan mahsulotlarni naqd pulga sotib olishiga imkon berilishi eksport hajmi keskin oshishiga xizmat qildi. Birgina davlat tomonidan eksport siyosatining liberallashtirish natijasida mahsulotlar eksporti yuqoriladi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va eksportini tashkil qilishni muvofiqlashtirish sohasida hamda jahon va mintaqaviy meva-sabzavot mahsulotlari bozorlarining konyunkturasini tahlil etib borish, shu asosda respublika hududlarida yangi yetishtirilgan va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini sotuvga tayyorlash hamda eksport qilishni jadal rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirilmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizda eksport qiluvchi tashkilotlar tomonidan eksport mahsulotlarini yetishtirish va yuklab jo‘natish bo‘yicha shartnoma majburiyatlari bajarilishining monitoringini ta‘minlash, ularning faoliyatida yuzaga keladigan, shu jumladan zarur moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan bog‘liq masalalarni hal etishga ko‘maklashish hamda mamlakatda yangi uzilgan va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishni tashkil etish uchun zamonaviy transport-logistika infratuzilmasini tashkil etishga doir takliflarni ko‘rib chiqish va baholash, shu jumladan ixtisoslashtirilgan yangi infratuzilma obyektlarini tashkil qilish, sabzavot

<sup>98</sup> [https://kun.uz/18076653?q=%2Fuz%2F18076653&utm\\_source=uznet.press&utm\\_campaign=topic](https://kun.uz/18076653?q=%2Fuz%2F18076653&utm_source=uznet.press&utm_campaign=topic)

Saravan Gardens kompaniyasi direktori Jamshid Abdullaev «Umid 2.020» xalqaro konferentsiyasidagi nutqi

omborlari va sovutish qurilmalarini barpo etish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash, zamonaviy idish-qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘zlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi – mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda hamda logistika elementlarini joriy etishda, ish o‘rinlari va aholi daromadini ko‘paytirishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda bog‘dorchilik, uzumchilik, meva-sabzavotchilik, sholichilik, suvni tejash, agrokorxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mamlakatimiz aholisini vitaminlarga boy, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash va agrar tarmoqlari eksportida logistik salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega qishloq xo‘jaligi hamda bog‘dorchilik sohasining o‘rni beqiyos. Ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish eksport logistik strategiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishni va ulardan samarali foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu ko‘p jihatdan mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, moddiy manfaatdorlik masalasi va moddiy-texnik ta‘minot, mahsulot sotish, borasidagi muammolarni hal etishga ham bog‘liqligini kuzatishimiz mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda “Logistika” so‘zi (grekchada “Logistike – hisoblash, fikr qilish mahorati” ma‘nosini anglatadi) Rim imperiyasi davrida oziq-ovqat mahsulotlarni taqsimlash bilan shug‘ullanuvchi maxsus “logistlar” yoki “logistika” xizmatchilari vujudga kelgan vaqtdan qo‘llanila boshlagan.

O‘zbekistonlik iqtisodchilardan D.M.Umarova, M.A. Bo‘ronovalar esa logistikani moddiy va axborot oqimlarini, ularning birinchi manбайдan to oxirgi iste‘molchigacha bo‘lgan harakatini boshqarish, rejalashtirish va tashkil etish<sup>99</sup> deb ta‘riflashgan.

Quyidagi jadvalda iqtisodchi olimlar tomonidan logistika tushunchasiga berilgan ta‘riflarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

**1-jadval**

**Iqtisodchi olimlar tomonidan logistika tushunchasiga berilgan ta‘riflar<sup>100</sup>**

Mualliflar	Logistika tushunchasiga berilgan ta‘riflar
<b>A.N. Rodnikov</b>	Logistika – bu eng avvalo tovar harakati zanjirini rejalashtirish, transportitovka, ya‘ni transportda tashish, tovarlarni saqlash hamda boshqa materiallar va nomaterialning harakatlarini boshqarish, ularni nazorat qilib borish, ishlab chiqarish hududigacha material va xomashyolar xarakatlanish jarayonlarini takomillashtirish, zavodlar ichida xomashyo, material va yarim fabrikatlarni qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni oxirgi talablar va manfaatlarga muvofiq iste‘molchilarga yetkazib berish hamda tegishli axborot manbaalarga ishlov berish, ularni yetkazib berish va saqlashdir
<b>T.V. Kosareva I. G Smirnov</b>	Logistika – bu talablarni to‘liq qondirish maqsadida xomashyo, materiallar, tugatilmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, xizmat, moliya va iste‘mol joyigacha (qabul qilish, jo‘natish, tashqi va ichki o‘zgarishlarni qamrab olgan) vujudga keladigan oqimdan xabardor

<sup>99</sup> Logistika: O‘quv qo‘llanma. Umarova D.M., Bo‘ronova M.A. – Toshkent, ToshDTU, 2006 – y

<sup>100</sup> Iqtisodiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida muallif tomonidan mustaqil tuzildi

	qiladigan ilova qilingan axborotlar oqimlarini yetarli darajada va samarali (xarajat va vaqt nuqtai nazaridan) boshqarish jarayonidir
<b>D. Bauersoks</b>	Logistika infratuzilmasi ishlab chiqarish obyektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari va ularning imkoniyatlari, omborxonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiyani boshqarish, yuklarni yuklash-tushirish terminallari va chakana do'konlarga tegishlidir
<b>A.L.Nosov</b>	Logistika- bugungi dunyo sharoitida xalqaro transport-logistika tizimlarining tashkil etilishi va samarali faoliyat yuritishi muammolarini tadqiq etadi. Xalqaro qatnovlarda aralash tashqi savdo tashuvlarini tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatgan holda aralash yuk tashuvlarini rivojlantirish istiqbollari alohida ta'kidlaydi
<b>S. M. Rezer</b>	Logistika-o'z ishida o'zgarishlar sharoitida mintaqaviy transport tizimlarini boshqarish modellari va muammolari ko'rib chiqilgan. Mamlakat ishlab chiqarish-transport tizimida transport turlarining o'zaro ta'sir usullari, transport ishlari bozorini prognozlash metodologiyasi va magistral yo'l transportida yuklash ishlarini rejalashtirish prinsiplari to'liq tahlil etgan
<b>Q. A. Dadaboyev</b>	Logistika – mahsulotlar oqimini boshqarish, xomashyo bilan ta'minlashdan boshlab, to oxirgi iste'molchiga tayyor mahsulot yetkazib berilguncha, shu bilan birga, materiallar harakatiga yordam qiluvchi moliyaviy va axborot oqimigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi
<b>Umarova D.M., Bo'ronova M.A.</b>	Logistika – moddiy va axborot oqimlarini, ularning birinchi manбайдan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakatini boshqarish, rejalashtirish xamda tashkil etish
<b>Muallif ta'rifi</b>	Logistika – ichki va tashqi bozorlarda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit, arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlashi, bozordagi raqobatni rag'batlantirish, hamda tashqi bozorda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish jarayonini rivojlantirishdir

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda, biz olib bmuassasa tadqiqotlarimiz natijasida “logistika” tushunchasiga quyidagi mazmunda ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: “Logistika – ichki va tashqi bozorlarda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlashi, bozordagi raqobatni rag'batlantirish, hamda tashqi bozorda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish jarayonini rivojlantirishdir”.

Shuningdek, bizning fikrimizcha, logistika faoliyati faqat moddiy va axborot oqimlarini, ularning birinchi manбайдan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakatini boshqarish, rejalashtirish va tashkil etishdan tashqari, mahsulotni yetkazib berishda tez va sifatli darajada yetkazish hamda uning xarajatlarini kamaytirish yo'llarini izlab topish maqsadga muvofiq. Logistika sohasi O'zbekistonda nisbatan yangi soha hamda tizim bo'lganligi uchun ham respublikamizda bu soha bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada emasligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda bu sohada olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarda ma'lum

darajada muammolar mavjud. Shuningdek, mamlakatimizda logistika sohasi bo‘yicha ilmiy nazariy maqolalar hamda ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yer munosabatlari bo‘yicha katta ishlarni boshlangan, 2022 - yilning o‘zida 100 ming gektar ekin yerini aholiga dehqonchilik qilish uchun bo‘lib berildi. Buning hisobidan 1,5 million tonna qo‘shimcha oziq-ovqat yetishtirildi.

Eng asosiysi, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil qilindi, 1 million 200 mingdan ziyod odamlarimiz band bo‘lib, daromad olmoqda.

Shu bois, 2023 yilda ham suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan 100 ming gektar qo‘shimcha ekin maydonlarini aholiga ajratish ko‘zda tutilgan. Buning hisobidan qariyb 350 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil etiladi.

Agar jami 750 mingta yangi dehqon xo‘jaligini tadbirkorga, yer egasiga aylantira olsak, qishloqda juda ko‘p ijtimoiy muammolar, avvalo, ishsizlik va kambag‘allik masalasi yechiladi.

Viloyat va tuman hokimlari bu ishni samarali tashkil yetishga mas‘ul va javobgar bo‘lib, xalq oldida doimiy hisobot berib borishlari kerak. Buning uchun kooperatsiyani faol qo‘llab-quvvatlaymiz, kichik va o‘rta quvvatli saqlash korxonalari, saralash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantiramiz. Umuman, agrar sohada yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish loyihalariga 2023 yilda 1 milliard dollar ajratiladi.<sup>101</sup>

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganlaridek: “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot, e‘tibor bering, tayyor mahsulot eksport qilindi. 724 ming tonna ho‘l meva chetga sotildi va bu yurtimizga 856 million dollar valyuta keltirdi. Holbuki, ilgari ming-ming tonna turli shirin-shakar mevalarimiz dalada qolib, chirib ketar, isrof bo‘lardi, eng yomoni, uvol bo‘lar edi<sup>102</sup>”.

**Xulosa va takliflar.** O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yirik tarmog‘i bo‘lib hisoblangan meva-sabzavotchilik eksportida logistika zanjiri agrosanoat majmuasining quyi sohalaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq o‘z ichiga meva-sabzavot yetishtiruvchi klassterlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, ularning hududiy bo‘linmalari, seleksiya tajriba maydonlari, meva-sabzavotlarni qayta ishlash korxonalari va ularni sotish bilan shug‘ullanuvchi bir qator savdo va eksport kompaniyalarini qamrab oladi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog‘i eksportida ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish hamda uning logistikasini bevosita ushbu tarmoq rivojini tizimli ravishda kompleks amalga oshirish usullarini ishlab chiqish hozirgi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishga hukumat tomonidan alohida e‘tibor berilib, meva-sabzavotchilik sohasidagi iqtisodiy munosabatlarga davlatning o‘rni sezilib turmoqda. Bozor munosabatlari shakllanishi

<sup>101</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 – yil uchun murojaatnomasi <https://zkuqshvute.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaat-nomasi-toliq-matn>

<sup>102</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan 2017-yil 9-dekabrda tananali marosimdagi nutqidan. [www.pressservice.uz/uz/lists/view/1331](http://www.pressservice.uz/uz/lists/view/1331).

sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog‘idagi iqtisodiy munosabatlarning markazi va uning xarakatlantiruvchi kuchi asosini dehqon va fermer xo‘jaliklari egallaydi. Demak, bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, tizimdagi iqtisodiy munosabatlar shakllanishining dastlabki va eng asosiy bo‘g‘ini bu meva sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo‘g‘ini hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Родников Андрей Николаевич, Логистика: Терминологический словарь. М.: ИНФРА-М, 2000. 352 с
2. Смирнов И. Г., Косарева Т. В. Транспортная логистика: Учебное пособие. – К.: Центр учебной литературы, 2008. – 234 с
3. Бауэрсокс Д. Логистика. Интегрированная цепь поставок. — М.: Илим-Бизнес, 2001
4. Logistika. O`quv qo`llanma. Q.A.Dadabayev – Toshkent, TDIU
5. Logistika: O`quv qo`llanma. Umarova D.M.,Bo`ronova M.A. – Toshkent, ToshDTU, 2006 – y